



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 322 sahifa,
18-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<i>Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</i>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
<i>Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<i>Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</i>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rmi	23
<i>Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</i>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
<i>B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<i>Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<i>Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</i>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
<i>A. Safarov</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<i>Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</i>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
<i>Xolmurodova Sarvinoz</i>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<i>G'afforova Dildora Ergashevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<i>Yusupova Umida Zayniddin qizi</i>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<i>Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</i>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
<i>Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</i>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
<i>Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<i>Xurramova Sojida Abdunazar qizi</i>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari.....	91
<i>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</i>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
<i>Z. N. Urunova, M. Jaborova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
<i>Sattorova Shirinoy San'atovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<i>Buvrayev Akram Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
<i>Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</i>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
<i>Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</i>	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlari	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
<i>Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля камерaproctor	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'klanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari.....	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction 205 <i>A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova</i>
	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati 208 <i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>
	Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari 214 <i>Ismoilova Muattar Ilyosovna</i>
	Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari 219 <i>Alqarov Qodir Xoimatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li</i>
	Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish 222 <i>Murodova Sayyora Qanoatovna</i>
	Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari 226 <i>Norboyeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li</i>
	Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari 230 <i>Abdunabiyeva Kamola Mansurovna</i>
	Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili 236 <i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>
	Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 240 <i>Kozimov Sayfullah Maxammadjon o'g'li</i>
	Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish 245 <i>Raximov Zokir Toshmirovich</i>
	Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari 249 <i>Temirov Shoirbek Raimjonovich</i>
	Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish 253 <i>Kimsanova Rahnamo Solijonovna</i>
	Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish 257 <i>Muratov Muzaffar Shermamatovich</i>
	Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlilik davrining psixologik xususiyatlari 261 <i>Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li</i>
	Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari 264 <i>Oblayeva Lobar Erdonovna</i>
	STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations 268 <i>Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi</i>
	Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari 272 <i>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</i>
	Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi 276 <i>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</i>
	Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools 279 <i>S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova</i>
	Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration 282 <i>Shahlo Obidova</i>
	Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish 286 <i>Shodmonova Shoira Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi</i>
	Talabalarning to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari 290 <i>Turakulova Feruza Mamadoli qizi</i>



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	

UMUMTA'LIM MAKTABIDA XALQ HUNARMANDCHILIGI VA BADIY LOYIHALASHDA KREATIV YONDASHISH TEXNOLOGIYALARINING MAZMUN-MOHIYATI



Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, professor

G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
tadqiqotchisi

Annotatsiya: Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanlarini o'qitishda kreativ yondashuv texnologiyalarining mazmun-mohiyati yoritilgan. Tadqiqotda kreativ texnologiyalarning tarkibiy qismlari, ularning an'anaviy va innovatsion usullar bilan uyg'unligi hamda o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, so'rovnoma va pedagogik eksperiment usullari asosida tajriba guruhida kreativ yondashuv texnologiyalari – divergent fikrlash, TRIZ elementlari, aqliy hujum, sinkveyn va boshqa metodlar qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kreativ yondashuv o'quvchilarning badiiy tafakkuri, milliy merosga hurmati hamda mustaqil ijodiy faoliyat ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Tajriba guruhida original g'oyalar soni 2,5 barobar, loyihalar sifati esa 1,4 barobar yuqori bo'lgan. Shuningdek, kreativ loyihalash kompetensiyasining tarkibiy qismlari va uni rivojlantirishning amaliy mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: xalq hunarmandchiligi, badiiy loyihalash, kreativ yondashuv, texnologiya, umumta'lim maktabi, divergent fikrlash, loyihalash kompetensiyasi.

Abstract: The essence of creative approach technologies in teaching folk crafts and artistic design in secondary schools is revealed. The study analyzes the components of creative technologies, their integration with traditional and innovative methods, as well as their role in developing students' design competencies. Based on theoretical analysis, pedagogical observation, questionnaires, and pedagogical experiments, the experimental group employed creative approach technologies, including divergent thinking, TRIZ elements, brainstorming, cinquain, and other methods. The results demonstrate that the creative approach significantly enhances students' artistic thinking, respect for national heritage, and independent creative activity skills. In the experimental group, the number of original ideas was 2.5-times higher, while the quality of projects was 1.4-times higher. Furthermore, the components of creative design competence and practical mechanisms for its development are substantiated.

Key words: folk crafts, artistic design, creative approach, technology, secondary school, divergent thinking, design competence.



Аннотация: Раскрыта сущность технологий творческого подхода к обучению народным ремёслам и художественному проектированию в общеобразовательных школах. В исследовании проанализированы составные компоненты творческих технологий, их сочетание с традиционными и инновационными методами, а также их роль в развитии проектировочных компетенций учащихся. На основе методов теоретического анализа, педагогического наблюдения, анкетирования и педагогического эксперимента в экспериментальной группе были применены технологии творческого подхода – дивергентное мышление, элементы ТРИЗ, мозговой штурм, синквейн и другие методы. Результаты показывают, что творческий подход значительно повышает художественное мышление учащихся, уважение к национальному наследию и навыки самостоятельной творческой деятельности. В экспериментальной группе количество оригинальных идей оказалось в 2,5 раза выше, а качество проектов – в 1,4 раза выше. Также представлены компоненты компетенции творческого проектирования и практические механизмы её развития.

Ключевые слова: народные ремёсла, художественное проектирование, творческий подход, технология, общеобразовательная школа, дивергентное мышление, проектировочная компетенция.

KIRISH

Global ta'lim makonida kreativlik XXI-asrning asosiy ko'nikmalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston umumta'lim maktablarida "Texnologiya" va "Badiiy mehnat" fanlari doirasida xalq hunarmandchiligi, jumladan, kashtachilik, kulolchilik, naqqoshlik, zargarlik va to'qimachilik elementlari hamda badiiy loyihalash asoslari o'qitiladi ^[1]. Biroq amaliyotda ko'pincha an'anaviy reproduktiv metodlar ustunlik qiladi, bu esa o'quvchilarning ijodiy salohiyatini to'liq ochishga imkon bermaydi.

Mavjud adabiyotlarda xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashning alohida o'qitish metodikasi yoritilgan bo'lsa-da, ularning kreativ yondashuv texnologiyalari bilan integratsiyasining mazmun-mohiyati yetarlicha ilmiy asoslanmagan ^[2].

Xususan, kreativ texnologiyalarning o'ziga xos tamoyillari, bosqichlari, vositalari va ularning maktab yoshidagi o'quvchilarning badiiy loyihalash faoliyatiga ta'siri o'rganilmagan. Shu sababli ushbu tadqiqotning maqsadi umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashuv texnologiyalarining mazmun-mohiyatini nazariy asoslash va amaliy jihatlarini aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativ yondashuv texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish bugungi pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Karimov N.R. kreativ pedagogika asoslarini tahlil qilar ekan, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda noodatiy yechim topa olishi va ijodiy tafakkurini rivojlantirish kreativ ta'limning asosiy mezoni ekanligini ta'kidlaydi ^[1]. Olimning fikricha, kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning motivatsiyasi va ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, umumta'lim maktablarida "Texnologiya" fanini innovatsion metodlar asosida o'qitish o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil bo'lishi Jo'rayev R.X. va Qodirova D.Sh. tadqiqotlarida ham qayd etilgan ^[2].

Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashni o'qitish metodikasi bo'yicha Abdullayeva M.X. xalq amaliy san'atining milliy qadriyatlarini shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini yoritgan ^[3]. Tadqiqotchining fikricha, kashtachilik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi kabi xalq hunarmandchiligi yo'nalishlarini zamonaviy dizayn yondashuvlari bilan integratsiyalash o'quvchilarning estetik didi va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarining "Texnologiya" fani dasturida ham xalq hunarmandchiligi elementlari asosida amaliy faoliyatni tashkil etish orqali o'quvchilarda badiiy va texnologik kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan ^[4].

Xorijiy tadqiqotlarda ham kreativ loyihalash texnologiyalarining samaradorligi keng o'rganilgan. Johnson P. umumta'lim maktablarida creative design thinking yondashuvi o'quvchilarning innovatsion fikrlashi va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishini asoslab bergan ^[5].

Kim S.H. va Park J.Y. esa an'anaviy hunarmandchilikni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi ^[6]. Olimlarning fikricha, xalq hunarmandchiligi elementlarini zamonaviy dizayn va raqamli ishlab chiqish texnologiyalari bilan integratsiyalash o'quvchilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda bir qator usullardan foydalanildi. Avvalo, 15 ta mahalliy va xalqaro ilmiy manba, jumladan, Scopus, Web of Science hamda Milliy ta'lim markazi materiallari nazariy tahlil qilindi. Shuningdek, Toshkent, Samarqand va Qarshi shaharlaridagi beshta umumta'lim maktabida 34 nafar o'qituvchi faoliyati pedagogik

kuzatuv orqali o'rganildi ^[3]. 120 nafar 5–9-sinf o'quvchilari o'rtasida kreativ loyihalashga munosabatni aniqlash maqsadida o'n savoldan iborat so'rovnomma o'tkazildi.

Asosiy metod sifatida pedagogik eksperiment tashkil etildi: tajriba guruhidagi 60 nafar o'quvchiga kreativ yondashish texnologiyalari – divergent fikrlash, TRIZ elementlari, muammoli vaziyatlarni yechish algoritmi (ARIZ), aqliy hujum, sinkveyn, kubik usuli va kollajlarni loyihalash kabi metodlar qo'llanildi ^[4].

Nazorat guruhidagi yana 60 nafar o'quvchi bilan esa an'anaviy metodlar – namuna asosida bajarish, ko'rsatma berish va takrorlash asosida mashg'ulotlar olib borildi. Barcha natijalarga Student t-mezoni va xi-kvadrat (χ^2) yordamida statistik ishlov berilib, farqlarning ishonchiligi $p < 0,05$ darajasida baholandi.

Tadqiqot 2023–2024-o'quv yilida tayyorgarlik (sentyabr–noyabr), asosiy (dekabr–mart) va yakuniy (aprel–may) bosqichlarda amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kreativ yondashuv texnologiyalarining mazmun-mohiyati to'rtta asosiy komponentdan tashkil topganligi aniqlandi.

Birinchisi – motivatsion-ijodiy komponent bo'lib, u o'quvchilarning ichki ijodiy faolligini rag'batlantirish, milliylik bilan bog'liq emotsional aloqa o'rnatish va hayrat hissini uyg'otish orqali namoyon bo'ladi.

Ikkinchisi – protsessual-faoliyat komponenti bo'lib, muammoli vaziyatlarni yechish, muqobil g'oyalarni ishlab chiqish, eskizdan maketga va maketdan tayyor mahsulotga o'tish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Uchinchisi – texnologik ijro komponenti bo'lib, an'anaviy xalq hunarmandchiligi texnikalarini, masalan, guldorlik, chok turlari va naqsh geometriyasini zamonaviy materiallar hamda dizayn dasturlari – Canva, Paint 3D, Tinkercad bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

To'rtinchisi – reflektiv-baholash komponenti bo'lib, o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, sinfdoshlar ishiga baho berish va loyihani takomillashtirish yo'llarini belgilashdan iborat. Ushbu to'rt komponentning o'zaro bog'liqligi kreativ yondashuv texnologiyalarining yaxlit tizim sifatida ishlashini ta'minlaydi ^[5].

Eksperiment yakunlariga ko'ra, tajriba guruhidagi o'quvchilar loyihalashda o'rtacha 4,8 ta original g'oya taklif qilgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich atigi 1,9 tani tashkil etdi va farq statistik jihatdan ishonchli bo'ldi ($p < 0,01$). An'anaviy elementlarni yangi kontekstda qo'llay olish tajriba guruhida 73 foizni tashkil qilgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 32 foizga teng bo'ldi ($p < 0,001$). Badiiy loyihani tugatish va himoya qilish darajasi besh balli tizimda tajriba guruhida 4,5 ball, nazorat guruhida esa 3,2 ballni tashkil etdi ($p < 0,05$). Milliy hunarmandchilikka qiziqish ortishi tajriba guruhida o'z-o'zini baholash asosida 88 foizni, nazorat guruhida esa 54 foizni ko'rsatdi ($p < 0,01$). Tajriba guruhida jami sakkizta loyiha – kulolchilik buyumlari, kashta naqshlari asosida zamonaviy aksessuarlar, milliy o'yinchoqlar va ekologik materiallardan badiiy panellar yaratildi, ulardan oltitasi maktab ko'rgazmasida namoyish etildi. Kreativ texnologiyalarning samaradorlik mezonlari sifatida divergentlik (bir muammo uchun uch va undan ortiq turli yechim taklif qilish), moslashuvchanlik (xalq hunarmandchiligi uslubini zamonaviy materiallar – akril, yorug'lik, qayta ishlangan plastik bilan bog'lay olish), estetik va funksional uyg'unlik (mahsulotning go'zalligi va amaliy foydalanish imkoniyati) hamda milliy kodlarni saqlash (naqsh, ramz, kompozitsiya va rang tanlashda an'anaga hurmat) kabi ko'rsatkichlar belgilandi.

Muhokama qilinadigan jihatlar shuni ko'rsatadiki, kreativ yondashuv texnologiyalarining mazmun-mohiyati badiiy loyihalash metodlari majmuidan iborat emas, balki o'quvchining subyektiv tajribasiga asoslanish, muammoli va loyihaviy ta'lim metodlarining sintezi hamda an'anaviy hunarmandchilik bilimlarini zamonaviy dizayn tili bilan bog'lashni o'z ichiga olgan didaktik tizimdir. Eksperiment davomida eng yuqori natijalarga erishgan darslar muayyan tartib asosida qurilgan edi: avval o'n–o'n besh daqiqa davomida muammolashuv bosqichi, masalan, "Kashtadagi sarmunchoq naqshini 3D-printer yordamida zamonaviy bezak sifatida qanday qo'llash mumkin?" kabi savollar orqali amalga oshirildi. Keyin o'n besh–yigirma daqiqa davomida aqliy hujum va jamoaviy eskizlar asosida g'oyalar jamlandi. So'ngra o'n daqiqa texnologik karta tuzishga, ya'ni an'anaviy usullarni texnologik jarayonga integratsiya qilishga ajratildi. Undan keyingi yigirma–o'ttiz daqiqada loy, jun, ip kabi an'anaviy materiallar hamda plastik, sim, akril bo'yoq kabi zamonaviy materiallardan foydalangan holda maket yoki prototip tayyorlandi. Nihoyat, besh–o'n daqiqa refleksiya – "Nima yangi kashf qildim? Qanday xatolarimni takomillashtiraman?" kabi savollar asosida o'z faoliyatini tahlil qilishga sarflandi. Boshqa tadqiqotlar bilan solishtirganda, ushbu ishning o'ziga xosligi kreativ texnologiyalarni faqat dizayn bilan emas, balki etnomadaniy meros bilan bog'lab o'rganilganligidadir ^[6].

Shu bilan birga, o'zbek maktablarining moddiy-texnik bazasi cheklanganligi, xususan, kompyuterlar va 3D-printerlarning yetishmasligi kreativ g'oyalarni to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Biroq imkon qadar mahalliy materiallar – qum, shag'al, gazlama qoldiqlari bilan ishlash bu kamchilikni qisman bartaraf etdi.



Kelgusidagi tadqiqotlar uchun kreativ yondashuv texnologiyalarini boshlang'ich va o'rta maktab bosqichlari uchun alohida modellashtirish, xalq hunarmandchiligining raqamli resurslari bilan boyitilgan elektron platforma yaratish hamda qishloq va shahar maktablari o'rtasida kreativ loyihalar bo'yicha almashuv dasturlarini joriy etish tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashni o'qitishda divergent fikrlash, muammoli ta'lim, loyihalash usuli va refleksiyaning o'z ichiga olgan, o'quvchilarning individual ijodiy salohiyatini ochuvchi integrativ pedagogik tizimdir. Tajriba-sinov ishlari kreativ texnologiyalar qo'llangan guruhlarda loyihalash sifat ko'rsatkichlari, jumladan, original g'oyalar soni 2,5 barobar, tugallangan loyihalar sifati esa 1,4 barobar nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligini tasdiqladi. Shu tarzda, xalq hunarmandchiligini o'qitishga kreativ yondashuv milliy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy badiiy loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishning samarali mexanizmi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov N. R. Kreativ pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan, 2021. – 210 b.
2. Abdullayeva M. X. Xalq amaliy san'ati va dizayn o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Istiqlol", 2020. – 184 b.
3. Jo'rayev R. X., Qodirova D. Sh. Umumta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitishning innovatsion usullari // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. – 2023. – № 2. – B. 45–52.
4. Johnson P. Creative Design Thinking in Secondary Schools. – London: Routledge, 2021. – 256 p.
5. Kim S. H., Park J. Y. Fusion of Traditional Crafts and Digital Fabrication in Education // International Journal of Art & Design Education. – 2022. – Vol. 41(2). – P. 233–248.
6. O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarining "Texnologiya" fani dasturi (5–9-sinflar). – Toshkent: Ta'lim milliy markazi, 2020. – 68 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.